www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

SAYILTEPA YODGORLIGI KULOLCHILIK BUYUMLARI

Sanjar Abduraximov Uktamuvich, *kichik ilmiy xodim, O‘zR madaniy Meros aentligi Y,G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti.*

Email: abduraximovsanjar6@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada To‘sinsoy vodiysida bir necha o‘nlab arxeologik yodgorliklarining mavjudligi, bu vodiyda shaxarlar, qishloqlar, qal’alar, ibodatxonalarning borligidan dalolat beradi. Shuningdek tarixiy jarayonning turli bosqichlarida o‘sha davrlarga xos yashash sharoiti va o‘ziga xos madaniyat yaratganliklarini hududidagi boy madaniy meros borligi islom madaniyati kirib kelmasdan oldin ham bu vodiyda yuksak madaniyat shakillanganligini kursatadi. To‘sinsoy vodiysining rang-barang yodgorliklari sarasiga uning irmoqlaridan biri bo‘lgan Yuqorisoy bo‘yida joylashgan Sayiltepaning o‘rganilishi tarixi va olib borilgan arxeologik qazishmalar natijalari hamda bu yodgorlikdan topilgan ashyolar haqida malumotlar olasiz.*

Kalit so‘zlar: *Katta Sug‘d, To‘sinsoy, Sayiltepa, shaxar, qishloq, Soynoqsoy, Ostodonlar, qovunchi madaniyati, madaniy qatlam, zardo‘shtiylik, qozon, ko’za, xurmacha, xum, bug’doy, haykalcha, devor.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается наличие десятков археологических памятников в Тусинсайском бассейне, строительство городов, деревень, замков, храмов, мечетей в этой долине, а также условия жизни и уникальная культура, созданная в регионе на разных этапах исторического развития. Также наличие богатого культурного наследия в этой местности и условия жизни и создание уникальной культуры на разных этапах исторического процесса показывают, что высокая культура сформировалась в этой долине еще до прихода исламской культуры. Среди разнобразных памятников долины Тусинсай будут представлены история изучения Сайилтепы, расположенной на берегу одного из ее притоков Юкорисай, и результаты археологических раскопок, а также данные о артефакты, найденных в этом памятнике.*

Ключевые слова: *Большой Согд, Тусинсай, Сайилтепа, городища, село, Сайнаксай, Оссуарий, бахчевая культура, культурный слой, зороастризм, горшок, кувшин, финик, хум, пшеница, статуя, стена.*

Abstract. *In this article information is given about the existence of dozens of archaeological monuments in the Tusinsoy Valley, cities, villages, castles, temples, mosques were built in this valley, as well as the living conditions typical of those times at different stages of the historical process and the creation of a unique culture, in the region at various stages of the historical process. Also you can receive statistics the existence of a cultural heritage, the fact that a high culture was formed in this valley even before the arrival of Islamic culture, among the colorful monuments of the Tusinsoy valley, the history of the study of Sayiltepa, located on the bank of one of its tributaries, the Yukorisoy, and the results of the archaeological excavations, as well as the objects found in this monument.*

Key words: *Katta Sugd, Tusinsoy, Sayiltepa, city, village, Soynoksoy, Ostodonlar, melon culture, cultural layer, Zoroastrianism, pot, jug, date, khum, wheat, statue and the wall.*

To‘sinsoy vodiysi Katta Sug‘dning shimoliy sarxadlarini egallagan azim Nuroto tog‘larining janubida joylashgan bu xududdan oqib keluvchi o‘nlab soylar mavjud va ularning soylari asosan bu soy yoqalab joylashgan qishloqlar aholisining ekin-tikinlarini, bog‘-rog‘larini sug‘orishga sarflanadi. Bu hududdagi kata-kichik soylarning qo‘shilishidan To‘sinsoy paydo

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

bo‘ladi va u xozirgi Samarqand viloyatining Qo‘shrobot, Payariq va Ishtixon tumanlari bo‘ylab oqadi. Daryo voxaning yuzlab gektar yerlarini sug‘organligi bois, uning quyi oqimida ko‘pincha suv tanqis bo‘ladi. O‘tgan asirning 70-80-yillarida To‘sinsoyning o‘rta oqimida suv ombori qurilishi munosabati bilan uning boshlanishidan to Zarafshon- Oqdaryoga quyilishigacha bo‘lgan hudud, yani To‘sinsoy vodysi Arxeologiya institute olimlari tomonidan mufassal ko‘zdan kechirilgan va turli tarixiy davrlarga oid 65 ta arxeologik yodgorlik hisobga olingan [Ростовцев, Иваницкий, Вафаев, 1983, с.248-256].Ular antik, ilk o‘rta asrlar va o‘rta asrlar shaxarlari va qishloqlari xarobalari, kochmanchilar mozor-qo‘rg‘onlari, maxalliy o‘tiroq zardo‘shtiy xalqlarning daxmalari, turli davrlarga oid qoyatosh suratlari galeriyalari va hokozolardir. Bu turdagi rang-barang arxeologik yodgorliklarning mavjudligi va son jihatdan ham juda ko‘pligi To‘sinsoy vodiysining qadimdan Sug‘dning axoli tig‘is yashagan vohalardan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Lekin bu vodiyda eng qadimiy aholi manzilgohlari qachon paydo bo‘lganligi to‘grisida dalillar etarli emas. Shaxarlar va qishloqlarning eng qadimiylari xozircha antik davrlarga borib taqaladi. Lekin To‘sinsoyning o‘rta oqinida joylashgan Darinsoy qishlog‘idan shimoli-g‘arbda qurigan soy yoqalarida bir necha dona ishlov berilgan tosh buyumlar topilgan. Ularning neolit davriga oidligi aniqlangan [Ростовцев, Иваницкий, Вафаев, 1983, с.248-256].

To‘sinsoy vodiysida bir necha o‘nlab arxeologik yodgorliklarining mavjudligi, ularning ayrimlarida olib borilgan qazishma ishlari natijasida qo‘lga kiritilgan osori-atiqalar bu vodiyda ajdodlarimiz ming yillar davomida uzluksiz yashab kelganliklarini, soy bo‘ylarida dehqonchilik qilishib ekin maydonlari va bog‘-rog‘lar barpo etkanliklarini, bu vodiyda shaxarlar, qishloqlar, qal’alar, ibodatxonalar, masjidlar qurganliklarini, shuningdek tarixiy jarayonning turli bosqichlarida o‘sha davrlarga xos yashash sharoiti va o‘ziga xos madaniyat yaratganliklarini ko‘rsatadi. Biz bu o‘rinda voxadagi qadimiy shaxar va yirik axoli manzilgohi bo‘lgan Sayiltepaning o‘rganilishi haqida to‘xtalmoqchimiz.

To‘sinsoy vodiysining rang-barang yodgorliklari sarasiga uning irmoqlaridan biri bo‘lgan Yuqorisoy bo‘yida joylashgan Sayiltepadir, ilk o‘rta asrlarda bu soy bo‘yida yashagan, zardo‘shtiylik diniga e’tiqod qilgan aholi tomonidan qishloqdoshlarini dafn etishga muljallangan ostadonlar - ossuariylarni ko‘rish mumkun [Иваницкий, 1989,с.53-59].

Katta arxeologik yodgorlik hisoblangan Sayiltepa qadimgi shahar ko‘rinishidagi manzilgoh bo‘lib. Bu yodgorlik artofidan juda ko‘plab ossuariylar, spool bo‘laklari turli xil uy ro‘zgor buyumlari topilgan. Manzilgoh pastki tomonidan soy oqib o‘tgan, undan bu erda yashagan aholi foydalangan. Bundan tashqari tahminan bir xil masofada bir-biriga yaqin joyda nekropol va yer ustidagi qabir topligan.

Sayiltepa ikki pog‘onali tepalik bo‘lib, maydoni 98x64 m, Pastki pog‘onasining balandligi 14 m, yuqori pog‘onasining balandligi esa 16 m. 1986-yilda 8-maktab (hozirgi 35-maktab) o‘qituvchisi Po‘lat Karimov Sayiltepadan taxminan 400 m masofada, maktab xududidan odam suyaklari va ostadonlar parchalari topilganligi to‘g‘risida arxeologlarga xabar bergan. Bu erda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davrida ostadonlar bilan bog‘liq biron-bir inshoot qoldiqlari uchramadi va bunday inshoot mavjud bulgan bo‘lsa ham bu hududda olib borilgan yer o‘zlashtirishlar davrida buzilib ketilgan bo‘lishi mumkin[1]. Ostadonlar topilgan joydan chiqqan kulolchilik idishlari parchalari milodning VII- VIII asrlariga oid bo‘lganligi bois, ostadonlarni ham shu davrga mansub deb hisoblash mumkin [Иваницкий, 1989,с.53-59]. Ularning parchalaridan uchta ostadonning to‘liq tiklashga, beshta ostadonni esa qisman tiklashga muvaffaq bo‘lgan bundan tashqari bu hududdan hozirgi kunda ham tasodifan yer haydash yoki

[1] А.А. Раимқулов. Катта Суғд-Суғдиёна. – Тошкент.2017. 148 б

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023


uy qurulishi uchun aholi tomonidan qazilgan yerlardan arxeologik matriallar har xil ko‘rinishdagi ko‘zalar turli davrga tegishli tanga pullar hattoki tasoadifan Bobur Yalg‘ashov tomonidan topib olingan ostodon ham Sayiltepaga uzoq bolmagan taxminan 200 m joydan topilganligini gapirishimiz mumkin (hozirgi kunda Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasida).

2022-yil Sayiltepa arxeologik yodgorligida To‘sinsoy havzasi moddiy madaniyatini o‘rganish maqsadida arxeologik qazilma ishlari boshlandi. Sayiltepa arxeologik yodgorligi ($40^0$10”36.89” S, $66^0$49”21.85” V) dengiz satxidan 675 m balandlikda, To‘sinsoyning o‘ng qirg‘og‘ida, Abdurasultepa yodgorligidan 2,5 km g‘arbda joylashgan. Yodgorlikda arxeologik tatqoqotlar jarayonida, To‘sinsoy voxasidagi arxeologik yodgorliklar ko‘zdan kechirildi va Sayiltepa arxeologik yodgorligida qazish ishlari olib borildi. Sayiltepa arxeologik yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar uning maydonini o‘lchash bilan boshlandi. Yodgorlikning maydoni 5,7 gektar pastki pog‘onasining balandligi 14 metr yuqori pog‘onasining balandligi esa 16 metrni tashkil qiladi.



Dastlab yodgorlikning janubiy-sharqiy qismida 3X3 m o‘lchamda shurf qazildi. Qazishma jarayonida yuza qatlam olib tashlanganidan so‘ng, aralash g‘ovakli qatlam kuzatila boshladi. Ushbu qatlamdan XI- XII asrga oid sopol bo‘laklari, shisha bo‘laklari turli xil hayvon suyak qoldiqlari va organik qoldiqlar aniqlandi. Qazuv ishlari davomida, aralash qatlamdan so‘ng shurfning shimoliy burchagida o‘ra (xo‘jalik maxsulotlarini saqlashda ishlatilgan) topildi, aylana diametri 110 sm, chuqurligi 100 sm. Uning yonida ikkinchi o‘ra ham aniqlandi, janub tomonida, aylanasi 125- 130 sm, chuqurligi 100 sm. Ushbu o‘ralardan sirlangan lagan bo‘laklari, qozon bo‘laklari aniqlandi, undan tashqari xom g‘isht bo‘laklari va kul qoldiqlari xam bor. O‘raning tagida o‘simlik qoldiqlari kuzatildi. Shurf qazish jarayonida organik qoldiqlar, kul qoldiqlari kuzatildi. Tuproq yumshoqlashib, qazuv ishlari 6-yarusga kelib tuproq qatlami biroz qattiqlashdi. Shimoliy sharq tomonda o‘ra o‘rni aniqlandi bundan tashqari, pishgan g‘isht bo‘laklari bir qator qilib terilgan xolda aniqlandi. Taxminga ko‘ra ichki devor yoki biror qurilma bo‘lgan. G‘ishtlar o‘lchamlari 20x20x3 sm, hamda sopol bo‘laklari ham aniqlandi. Sopol bo‘laklari milodiy IX-XII asrlarga oid. Sirlangan lagan tovoq, qozon bo‘laklari, kosa, shamdonlar va shu davrga xos bo‘lgan shisha bo‘laklari topildi. Bundan ko‘rinib turibdiki rivojlangan o‘rta asrlarda ham bu shaxarda hayot davom etgan. Qazishma ishlari 7-yarusga etganda qalinligi 45-50 sm bo‘lgan pol satxi aniqlandi. Pol satxini tozalash vaqtida hayvon suyaklari va organik chirindilar aniqlandi. 8-yarusda qalinligi 5-8 sm bo‘lgan kul qatlamga duch kelindi. Qazishma ishlari 9-yarusga yetganda xum g‘isht bo‘laklari, sopoldan yasalgan uy ro‘zg‘or buyumlari, uy hayvon suyaklari, shisha bo‘laklari temir buyum bo‘laklari topildi. 9-yarusda sharqiy tomonda paxsadan qurilgan eni 90 smli devor aniqlandi. Devor shimol janub yo‘nalishida qurilgan bo‘lib, aftidan qal’a tashqi devori yoki binoning tashqi devori bo‘lganligi taxmin qilindi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023



So‘g‘dning arab istilosiga qadar va rivojangan o‘rta asrla davri me’morchiligida paxsa devorlari keng qo‘llanila boshlangan bo‘lib, hozirda ham qishloq uylari va xovli atroflarini ushbu usulda qurish saqlanib qolgan [Нилсен, 1966. С. 203]. Devorni kesib pastga qazuv ishlarini davom ettirildi. Shurfning shimoliy chegarasi bo‘ylab qazish chog‘ida ko‘plab xum bo‘laklari aniqlandi. Bu qatlamdan bu topilmalardan tashqari chala pishgan g‘ishtlar, uy hayvon suyaklari, organik qoldiqlar kuzatildi. Bundan tashqari shu qatlamda yong‘in bo‘lganligi yong‘inda chala yongan daraxt yog‘och qoldiqlari, bug‘doy ombori borligi bug‘doylar chala yonganligi tufayli yaxshi sqalanganligi kuzatildi. 10-yarusda 15-20 sm qalinlikda kul qatlami kuzatildi. Shimol tomondan xom g‘ishtli devor qoldiqlari aniqlandi. Janubiy g‘arbdan o‘choq izlar topildi. Devor tuproqlardan tozalash vaqtida uning ustidan odam tasviri tushurilgan haykalchaning bosh qismi topildi. Haykalcha loydan yasalgan, ko‘zi, qoshi, burni va og‘zi aniq bilinib turibdi. Soqoli va sochlari bir xilda yasalgan va ulanib ketgan. Qazishma jarayonida 10-yarusdan hayvon suyaklari kul, yongan yog‘och qoldiqlari, ko‘mir, shlaklar va xum bo‘laklari topildi. Yarus o‘rtalarida yaxshi saqlangan ko‘mirga aylangan bug‘doy qoldiqlari topildi. Bug‘doyning yaxshi saqlanib qolingani bu yodgorlikda axoli dehqonchilik qilib bug‘doy ham etishtirilganligi malum bo‘ldi.

Qazuv ishlari davom ettirilib, 10 yarus oxirlarida loy va somon bilan aralashtirilib qilingan pol satxi aniqlandi. Pol qatlam tagidan ko‘mir qatlam aniqlandi. Bu qatlam shurfning barcha xududida birdek kuzatiladi. Ushbu qatlam qalinligi 5 sm dan 10 sm gacha.

qazishma 11-12-yarsga etib keldi shu qatlamdan sopol bo‘laklari, xum bolaklari, uy hayvon suyaklari va organik chirindilar topildi. Shu qatlamdan xom g‘ishtdan qurilgan eni 85 sm bo‘lgan devor aniqlandi.

Qazishmaning 12-13-yarusida qizil angoblangan sopol bo‘laklari qayd qilindi. Shu yarusda o‘lchamlari 45x25x10 sm bo‘lgan xom g‘ishtdan qurilgan devor aniqlandi. Devorning eni 70 sm. Taxminimizga ko‘ra devor binoning ichki xonasini bo‘lish uchun qurilgan. Qazishma jarayonida yana uchta devor qatori aniqlandi. Ushbu devorlar orasida bo‘shliq koridor va xonaning bir qismi bo‘lganligini taxmin qilish mumkin. devorlar paxsadan qurilgan bo‘lib, eni 90-100 sm, ikki devor oralig‘i 150 sm. Uchinchi devor xom g‘ishtdan qurilgan va ikkinchi devor bilan oralig‘i 220 sm.

Yodgorliknida qazish ishlari davom ettirilib, №1 shurfdan 317 m masofada shimol tomonda joylashgan kichikroq tepalikda kesma qazib tushildi. Uni qazishdan maqsad, ushbu tepalikning yodgorlik bilan bog‘liq jixati bormi yoki alohida tepalik bo‘lganmi aniqlash edi. Qazuv ishlari jarayonida 1-3 yaruslarda tarkibida turli davrlarga xos sirlangan va sirlanmagan sopol bo‘laklari, shisha qoldiqlari va kuygan yog‘och qoldiqlari bo‘lgan aralash qatlam kuzatildi. Kul qatlamlari orasida xom g‘isht bo‘laklari kuzatildi, hamda uy hayvonlari ot, qo‘y, sigir hamda mayda kemiruvchilarning suyak qoldiqlari kuzatildi. Shundan so‘ng 4-5 yaruslarda yana


www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

bir qatlam aniqlandi. Ushbu qatlamdan o‘lchamlari 110x110 sm bo‘lgan o‘ra aniqlandi. O‘ra ichidan kul, yongan yog‘och bo‘laklari, sopol bo‘laklari, qozon bo‘laklari, hayvon suyaklari organik qoldiqlar va xom g‘isht bo‘laklari kuzatildi. Qazuv ishlari 5-6-yarusga etganda xom g‘ishtdan qurilgan devor qoldiqlari topildi, g‘isht o‘lchami 32x16x6 sm. Shu qatlamdan qozon, yaxshi saqlanmagan holdagi shisha buyumning og‘iz qismi va organik qoldiqlari bilan aralash yongan yog‘och qoldiqlari topildi. Kesma qazish ishlari jarayonida janub tarafdan eni 2-2,20 m bo‘lgan paxsadan qurilgan devor qoldiqlari aniqlandi. Devor yo‘nalishiga ko‘ra, uni tashqi mudofaa devori bo‘lgan degan taxminga kelindi.

Yodgorlikning g‘arbiy qismida №1 shurfdan 550 m shimoliy-g‘arb tarafda 2x2m shurf tashlandi birinchi qatlamdan sirlangan va sirlanmagan sopoi bo‘laklari, shisha bo‘laklari va uy xayvon suyaklari turli xil organik qoldiqlar hamda 1 dona tanga topildi. Bundan tashqari qoraxoniylar davriga oid devor qoldig‘i topildi. Ushbu devor 32x16x6 sm o‘lchamdagi xom g‘isht bilan terilgan. Devor shimoldan janubga qarab terilganligi malum bo‘ldi. Qazish ishlari 3-yarus o‘rtalariga qadar davom ettirildi.


Topilmalarning katta qismi sopol fragmentlardan va ba’zi butun idishlardan iborat bo‘lib, metall va shisha fragmentlari ham aniqlandi. Sopol idishlar asosan ikki qism – sirlangan va sirlanmagan idishlardan iborat. Sirlanmagan sopol namunalari shurflarning pastki qatlamlarida qayd qilindi.

Qozonlar asosan kulolchilik charxida yasalgan, shakli sharsimon, kesmada kulrang tusda, gardishi ichkariga yo‘naltirilgan bo‘lib, turli bezakli (qovurg‘asimon, to‘qinsimon) gorizontal maydoncha xosil qilingan. Dastalari asosan gardishning o‘ziga gorizontal xolda yopishtirilib, barmoq bosish bilan shakl xosil qilingan. Shu kabi qozonlar Afrosiyobning XI-XIII asrlar oshxona idishlari sopol majmualarida kuzatiladi [Соколовская, 2015. С. 91] Qozonlarning yana bir turi ularning gardishi tashqi tarafga keskin qayrilib manjetsimon ko‘rinish xosil qilan. Shu kabi qozonlar Axsikentning AK-16 majmuasida aniqlangan [Анарбаев, 2013. С. 452. Табл. LV: 7].




www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Kosalar shakliga ko‘ra konussimon korpusli va yarimsharsimon, tekis tagligi bilan ajraladi. tashqi tarafdan silliq qilib artib chiqilgan, qorin qismida salgina qayrilish xosil qilingan, xamiri soz, tarkibida sezilarli miqdorda qum va dresva qorishmasi mavjud. Angob berilmagan, faqatgina tashqi tarafi yorqin tusli loy bilan qayta ishlangan. Shu kabi idishlar Axsikentning VIII asrlarga oid AK-11 majmualarida kuzatiladi [Анарбаев, 2013. С. 420, табл. XXXVIII 1-13].



Xurmachalar asosan kulolchilik charxida yasalgan, sharsimon shaklda**,** gardish turiga ko‘ra to‘rtburchaksimon, biroz tashqariga qayrilgan, bo‘yni kalta, sirtqi yuzasi va gardishining ichki tarafiga qizil rangli angob berilgan, kesmada qizg‘ish tusda, xamiri soz, tarkibida qum va mayda oxaktosh aralashmalari uchraydi. Xurmachalarning bu kabi turlari Samarqandning VII-VIII asr oshxona idishlari majmuasida kuzatiladi [Соколовская, 2015. С. 241. Рис. 70].




Xumlar shakli ovalsimon, elkasi silliq chiqarilgan, gardishi tashqariga qayrilgan, cheti tekis, kesmada qizg‘ish tusda, xamiri zich, tarkibida qum, shamot va gips mavjud. Xumlarning turlari gardishi shakliga ko‘ra farqlanib gavdasi va boshqa jixatlariga ko‘ra o‘xshash. Umumiy sopol majmualariga davriy jixatdan mos keladi.

Topilmalar orasida terrakota xaykalchani bosh qismi aloxida axamiyat kasb etadi. Ushbu terrakota qo‘lda sxematik tarzda yasalgan. Xamiri qizil tusda, tarkibida yirik donali qum va gips aralashmasi mavjud. Uning tana a’zolari – ko‘zlari, quloqlari, burni, og‘zi va sochlari loy cho‘zmalaridan yasalib yopishitirib chiqilgan. Markaziy Osiyo terrakota xaykalchalarini o‘rgangan N.D. Dvurechenskaya ishlarida kombinatsiyalashgan uslubda – gavdasi qo‘lbola yasalib yuz qismi qolipda yasalgan bir necha terrakotalarni keltirib o‘tadi [Двуреченская, 2016. С. 211]. Biroq bizning xaykalcha bosh qismi qo‘lda yasalgan, balki gavdasi qolipda yasalgan bo‘lishi mumkin. Ushbu xaykalchani analogiyasida biroz ikkilanish bo‘lganligi sababli uni

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

keyingi tadqiqotlar uchun qoldirishga kelishildi.



Sirlangan sopol namunalari asosan lagan, kosa, chiroq va piyola kabi idishlar bo‘laklari xisoblanadi. ularning umumiy jixatlari – bezak berilishi, yasalishi, shakli va xokazolarni ko‘rib chiqqan xolda rivojlangan o‘rta asrlar davriga IX-XIII asrlar bilan davrlashtirish taklif qilindi.

Shu bilan birga metall va shisha idishlar ham aniqlanib ularning ba’zilari yaqin shishasozlik markazlaridan keltirilganligini aytib o‘tishimiz lozim. Rivojlangan o‘rta asrlar shishasozligini tadqiq qilgan J.K. Mirzaaxmedovning fikriga ko‘ra [Мирзаахмедов, 2011. с. 69. Рис. 12. 3-7] IX-XV asrlarda shu kabi idishlardan kimyoviy suyuqliklarni saqlash, atir-upa va pardoz ishlarida foydalanilgan.

Xulosa. Yodgorlik xududida olib borilgan dastlabki xulosalarga ko‘ra uning qishloq makonlaridan farqli ravishda biroz kengroq maydonda (saqlanib qolgan qismi-5 ga) ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga uning g‘arbiy va janubiy g‘arbida joylashgan relefli xududlar uning dexistoni bo‘lganligi to‘g‘risidagi dastlabki xulosalarni berdi. Topilmalarining dastlabki davriylashtirilishi ham ilk o‘rta asrlarda feodal jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi (V-VIII asrlar) davrida shu kabi qishloq manzilgohlari va mustaxkamlangan ko‘shk-tepalarning ko‘payishi xarakterli hususiyatlardan biri bo‘lganligini isbotlaydi [Мирзаахмедов, 2011. с. 69. Рис. 12. 3-7] Shu kabi ko‘shk va manzilgohlar xattoki 2-3 qator mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Ularning shu kabi tuzilishi yangicha ijtimoiy o‘zgarishlar, siyosiy va ma’muriy kuch ta’sirida paydo bo‘lganligini tahmin qilish mumkin.

Samarqand vohasi qishloq makonlarini o‘rgangan O.M. Rostovsev ularning tiplarini 5 ta turga bo‘ladi. Uning ta’kidlashicha “o‘rganilgan 100 ta tepalikdan 50 tasi ikki yarusli bo‘lib, mil. V asrdan qadimgilari yo‘q”. Ularning maydoni 0,2-0,5 ga atrofida. Qal’a xovlisi bilan birga 10x15 m dan 15x20 m o‘lchamda, eng kattalari 40x50 m o‘lchamda bo‘ladi. Tepa balandligi 6-20 m bo‘ladi (Ростовсев, 1975. С. 100).

To‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra ushbu yodgorlik qishloq manzilgohi sifatida V-VI asrlarda shakllanib, ko‘handiz sifatida VII-VIII asrlarda kengayib borgan. Va rivojlangan o‘rta asrlarda mudofaa devori bilan o‘rab olingan.

Yodgorlik geografik jixatdan muhim bo‘lgan nuqtada, Yuqorisaroy, O‘rtasaroy va Saynoqsoy soylarining birlashuvchi nuqtasida joylashgan. Shu ma’noda, To‘sinsoyning boshlanish nuqtasi va ayni suv ta’minoti va boshqaruvini yo‘lga qo‘yuvchi shahar bo‘lganligini

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

tahmin qilish mumkin. To‘sinsoy toponimi ham mazkur yodgorlik bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Umid qilamizki kelajakda ushbu soxa bo‘yicha ishlar faqat maqola ko‘rinishida to‘xtab qolmasdan desertatsiyalar xam yziladi.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yhati:

1.А. Анарбаев. Ахсикет – столица древней Ферганы. Ташкент: Изд-во “Тафаккур”, 2013.

2.Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. М.;-Л. 1950.

3.Двуреченская Н.Д. Терракотовая пластика древнейших государств Средней Азии IV в. до н. э. – IV в. н. э. (археологический аспект). – СПб.: Нестор-История, 2016.

4.Иваницкий И.Д. Оссуарии из округи Сайилтепа // ОНУ. №6. Ташкент. 1989.

5.Мирзаахмедов Ж.К. Ремесло стеклоделов крупнейших городских центров средневекового Узбекистана IX-XV вв. (по материалам Бухары, Пайкенда, Самарканда, Ташкента, Ахсикента и Кувы) // Археология Узбекистана. №2 (3). Самарканд. 2011.

6.Наршахий. Таърихи Бухоро. Душанбе. 1979.

7.Нилсен В.А. Становление феодалной архитектуры Средней Азии (V-VIII вв.). Изд. «Наука». Ташкент. 1966 г.

8.Раимқулов А.А. Катта Сўғд – Сўғдиёна. “Иқтисод-молия”. Ташкент. 2017.

9.Ростовцев О.М., Вафоев Г.А., Иваницкий И.Д. Археологические исследования в долине Тусунсая Самаркандской области // ИМКУ. Вып. 18. Изд. «Фан». Ташкент. 1983.

10.Ростовцев О.М. Изучение селских поселений самаркандского Согда // ИМКУ. Вып. 12. Ташкент. 1975.

11.Соколовская Л.Ф. Археология Централной Азии: Архивные материалы. Том I. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб конца VII- начала XIII в.)- Самарканд: МИЦАИ, 2015.